

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI  
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.20/13.05.2020Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**ESHANKULOV ALISHER PARDABAYEVICH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI XALQARO  
ALOQALARINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of  
The Doctor of philosophy (PhD) in political sciences**

**Eshankulov Alisher Pardabayevich**

О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalqaro aloqalarining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

**Эшанкулов Алишер Пардабаевич**

Совершенствование институциональных механизмов международных отношений Олий Мажлиса Республики Узбекистан..... 23

**Eshankulov Alisher Pardabayevich**

Improving the institutional mechanisms of international relations of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan..... 43

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 48

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI  
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.20/13.05.2020Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**ESHANKULOV ALISHER PARDABAYEVICH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI XALQARO  
ALOQALARINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ss raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.dba.uz/uz/avtoreferatlar](http://www.dba.uz/uz/avtoreferatlar)) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo'rayev Qodir Asadovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergashev Bahodir Hojiqurbonovich**  
siyosiy fanlari doktori, professor

**Nayimov Otabek Mardonovich**  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/13.05.2020Ss.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_»\_\_\_\_\_soat\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent sh. Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. 7-qavat, 701-xona. Tel.: (99871) 232-60-47; e-pochta:info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (444 — raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 45-uy, Tel: (99871) 232-60-47).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_»\_\_\_\_\_da tarqatildi.

(2024-yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**Q.Q.Quranboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

**A.T.Jalilov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

**G.O.Sa'diyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, xalqaro hamkorlik mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning dinamik transformatsiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va ularning davlat boshqaruvi jarayonlariga tez joriy etilishi sharoitida parlamentlararo hamkorlik tashqi siyosatning muhim vositasiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, geosiyosiy keskinlikning kuchayishi natijasida an'anaviy xalqaro hamkorlikning samaradorligi pasayib bormoqda. Bunday sharoitda parlament institutlari xalqaro muloqot uchun muqobil maydonga aylanmoqda. Mustaqil davlatlar o'z milliy manfaatlarini ilgari surish va xalqaro aloqalarni kengaytirish maqsadida parlament tuzilmalaridan foydalanishmoqda. Shu boisdan, ishonchli xalqaro aloqalarni mustahkamlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, unda parlamentning o'rnini va rolini oshirish dolzarb bo'lib bormoqda.

Dunyo ilm-fanida davlat va jamiyat taraqqiyotining zamonaviy tendensiyasi, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarning dinamik o'zgarishi va bu jarayonlarda parlamentarizm ishtirokining institutsional asoslarini bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish masalalari soha olimlari va xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlarining diqqat - e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Bu esa, siyosiy tizim barqarorligini ta'minlashda parlament diplomatiyasining xalqaro aloqalardagi o'rnini va ahamiyatini mustahkamlash, parlamentlararo munosabatlarning bugungi xususiyati va oldinda turgan muammolarni aniqlash va preventiv tarzda hal etish, xorijiy mamlakatlar parlamentlarining tashqi siyosiy vazifalarni amalga oshirishdagi ustuvor tajribasini tadqiq etish dolzarbligining yanada kuchayishiga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"ning "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish" deb nomlangan 5-yo'nalishida mamlakatimizning ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosati bilan bog'liq bir qator dolzarb vazifalar belgilangan<sup>1</sup>. Jumladan, Strategiyaning "Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish" deb nomlangan 90-maqsadida: dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo'shnichilik tashqi siyosati olib borilishini izchil davom ettirish; hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o'rnatish; barcha qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo'nalishlardagi ikki va ko'p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi (2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son) Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalqaro aloqalarining kengayishi tashqi siyosatning ustuvor vazifalarini muayyan darajada amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda parlamentarizm faoliyatining xalqaro hamkorlik asoslarini institutsional jihatdan takomillashtirish, xalqaro parlamentlararo institutlar bilan tajriba almashish pragmatik, ochiq va faol tashqi siyosatning rivojlanishiga katta turtki beradi. Zero, “mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, uning tashqi dunyoga ochiqligini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgandir”<sup>2</sup>.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 11-apreldagi “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-403-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmonlarida hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Parlament xalqaro aloqalarini rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishga oid masalalarni tadqiq qilishda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va chiqishlari, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlarni uchta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi guruhni mahalliy olimlarimizning tadqiqot ishlari tashkil etadi. Jumladan, tadqiqotchi olimlar A.Saidov, N.Jo‘rayev, M.Qirg‘izboyev, Q.Quranboyev, R.Jumayev, A.Jalilov, Q.Jurayev, O.Nayimov, O.Hasanov, H.T.Odilqoriyev, O‘.Muhamedov, E.Xalilov, Sh.Qudratxo‘jayev, O.Muxammadiyevlar zamonaviy siyosiy tizimlarda parlamentning tutgan o‘rni va parlament institutining faoliyati, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mamlakat ichki va tashqi siyosatidagi vakolatlariga bag‘ishlangan o‘rganishlar va ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shuningdek, O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatik munosabatlari, unda parlamentning o‘rni va roliga doir masalalarni tadqiq qilgan olimlar: S.Safoyev, R.Alimov, V.Norov, D.Sayfullayev va boshqalarning ilmiy ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin<sup>3</sup>.

Ikkinchi guruhga MDH olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar kiradi. Xususan, V.Varnavskiy, A.Vinogradova, A.Dorskaya, I.Proxorenko, M.Strejneva,

---

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 332.

<sup>3</sup> Mazkur tadqiqotchilarning ilmiy asarlari foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

Ye.Xaritonova va boshqa tadqiqotchilar - parlamentlararo institutlar faoliyatining ahamiyati va o'ziga xosligi, M.Varlen, K.Voda, S.Jiryakov, K.Kosachev, V.Peskov va boshqalar parlament diplomatiyasining davlatlararo munosabatlardagi o'rni va parlamentlararo muloqotning institutsional xususiyatlari, R.Mullagaleyeva, A.Murzakulova, M.Nikolayev, M.Xasanova va boshqa olimlar xalqaro munosabatlarda parlamentlararo hamkorlik va parlamentlararo aloqalarning yangi tizimlari haqida, S.Tkachenko, D.Gladeyaning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasiga (MDH PA) a'zo davlatlarda parlamentarizm to'g'risida, M.Yushinning Yoshlar parlamentarizmining ahamiyati haqida, N.Satvaldiyev, A.Tuyabayevaning Parlamentlararo hamkorlik tizimini shakllantirishning nazariy va uslubiy yondashuvlari haqidagi tadqiqotlarini keltirib o'tishimiz lozim<sup>4</sup>.

Uchinchi guruhga esa ko'p sonli xorijiy olimlar tadqiqotlari kiritilgan bo'lib, asosan ingliz tilida yozilgan ilmiy ishlar hisoblanadi. Jumladan, xalqaro munosabatlar nazariyalari doirasida parlamentning davlatlar tashqi siyosatidagi o'rni va rolini tahlil qilgan tadqiqotchilar sirasiga: A.Vendt, E.Sloter, B.Rasset, K.Xill, M.Smit, K.Doych, Dj.Nay, X.Nikolson, A.Barrell, R.Kann, R.Dal, P.Uillets va boshqa olimlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek, xalqaro parlamentarizm, parlamentarizm institutlari va parlament diplomatiyasining davlatlararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyati va uni takomillashtirish mexanizmlari borasidagi tadqiqotlar B.Gali, A.Kofeliche, D.Mariya, F.Vaysglas, G. de Bur, D.Yanchich, S.Stavridis, S.Xiks, B.Xoyland, Xr.Lange, P.Lendi, B.Leston, F.Norton, D.Longli, X.Devidson, Z.Sabich kabi olimlar tomonidan olib borilgan<sup>5</sup>.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mamlakat ichki va tashqi siyosatidagi vakolatlariga, O'zbekiston tashqi siyosatida parlamentning o'rni va rolini tadqiq qilishga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ilmiy manbalar tahlili O'zbekistonda tashqi siyosatni amalga oshirishda Oliy Majlisning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishni o'rganishga bag'ishlangan kompleks tadqiqot ishlari yo'qligini ko'rsatmoqda. Shu boisdan ham, Parlament xalqaro aloqalarini institutsional jihatdan mustahkamlash yo'nalishida tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-20170929253 - "Davlat boshqaruvi sohasida mutaxassislarni tayyorlash va davlat xizmatchilari malakasini oshirish bo'yicha maxsus ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda ular faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy uslublarini joriy etish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

---

<sup>4</sup> Mazkur tadqiqotchilarning ilmiy asarlari foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

<sup>5</sup> Mazkur tadqiqotchilarning ilmiy asarlari foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalqaro aloqalarining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat tashqi siyosatini amalga oshirishda parlamentning ishtirokini nazariy-konseptual diskurs orqali ochib berish;

parlamentlararo munosabatlarni zamonaviy siyosatshunoslikning kategoriyasi sifatida tadqiq etish;

Oliy Majlis xalqaro aloqalarining huquqiy-konseptual asoslari, rivojlanish bosqichlari va tendensiyalarini tahlil qilish;

siyosiy tizim barqarorligini ta‘minlashda parlament diplomatiyasi va uning o‘sib boruvchi rolini tadqiq etish;

xorijiy mamlakatlar parlamentlarining xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasidagi tajribasini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining xorijiy mamlakatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo institutlar bilan o‘zaro hamkorligining hozirgi holatini baholash;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlamentlararo aloqalarining institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining xalqaro aloqalar yo‘nalishidagi faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va institutsional asoslari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tahlil, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, kontent tahlil, prognozlashtirish va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining yangi tashqi siyosiy strategiyasi va xalqaro hamkorlik aloqalarining jug‘rofiy kengayish tendensiyalari, xalqaro va mintaqaviy darajadagi noan‘anaviy chaqiriqlarning milliy manfaatlarga ta‘sirini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Xalqaro masalalar bo‘yicha Ekspertlar kengashini ta‘sis etish zarurati asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis faoliyati samaradorligini yanada oshirish, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ahamiyati va mazmun-mohiyati xususida jamoatchilik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatish, mamlakat tashqi siyosiy tashabbuslari to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga to‘laqonli va xolisona axborot berish hamda parlament faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish tizimiga asoslangan “Raqamli parlament” konsepsiyasini qabul qilish va “Parlament” telekanalini tashkil etish zarurligi dalillangan;

xalqaro maydonda xalq va davlat manfaatlarini ilgari surish, parlamentlararo institutlar faoliyatiga yoshlarni keng jalb qilish, parlament diplomatiyasini amalga oshirish va bu jarayonlarda parlamentarizm milliy kadrlar maktabini takomillashtirishga qaratilgan davlatning ustuvor maqsadlaridan kelib chiqqan holda Parlamentlararo Ittifoqning Butunjahon yoshlar qo‘mitasini tashkil etish taklifini ilgari surish muhimligi dalillangan;

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ochiq, pragmatik va ahil qo‘shnichilik tamoyillari natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida vujudga kelgan o‘zaro ishonch, birdamlik va xalq diplomatiyasi muhiti, milliy parlamentning mintaqaviy aloqalarini institutsional jihatdan takomillashtirish zarurati hozirda faoliyat yuritayotgan Markaziy Osiyo parlamentlari forumi negizida O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo Parlamentlararo Assambleyasini ta’sis etishga asos bo‘lishi isbotlangan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tashqi siyosat masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish bo‘yicha mutlaq vakolatlarini yanada kengaytirish, xususan, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining faoliyatiga doir hisobotlarni palataning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi orqali davriy ravishda eshitish vakolatini kiritish zarurligi asoslangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xorijiy parlamentlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalari rahbarlarining o‘z faoliyati bo‘yicha hisobotlarini eshitib borishi va bu masalani O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yish zarurligi asoslab berildi;

tadqiqot doirasida “institutsional mexanizmlar” tushunchasini siyosiy fanlar doirasida ilmiy muomalaga kiritish maqsadida mualliflik ta’rifi ilmiy asoslab berildi;

O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini takomillashtirish va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangi tahrirda qabul qilish zarurati asoslab berildi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzurida Xalqaro siyosat va parlamentlararo munosabatlar masalalarini tartibga soluvchi xalqaro masalalar bo‘yicha Ekspertlar kengashini tashkil qilish zarurati amaliy mexanizmlari bilan asoslab berildi;

Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyo Parlamentlararo Assambleyasini tashkil etish zarurati ilmiy asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning xalqaro aloqalar faoliyatini raqamlashtirish, onlayn muloqotlar, raqamli hujjat aylanish tizimini joriy etish, parlamentlararo onlayn muloqot platformasini yaratish, xorijiy parlamentlar bilan

onlayn muloqot va videokonferensiyalar o'tkazish uchun maxsus platforma yaratish zarurligi ilmiy asoslangan;

xalqaro parlamentlararo institutlarda yoshlarning ishtiroki va diplomatik aloqalardagi faolligini oshirish maqsadida xorijiy parlamentlar bilan muntazam tajriba almashish va o'zaro o'quv dasturlarini samarali tashkil etish zarurati asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Parlamentlararo Ittifoq, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Islom Hamkorlik Tashkiloti Parlament Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar va parlamentlararo institutlardagi ishtirokini kengaytirish zarurligi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ularning xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, parlament faoliyati, parlamentlararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi borasidagi nufuzli ilmiy nashrlar, xalqaro va milliy qonun normalari, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgani hamda xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatidan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangani va amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalqaro aloqalarini institutsional jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, milliy qonunchilikka takliflar kiritish, parlament tashqi siyosiy faoliyatiga oid mavzularni o'qitish va kelgusida ularni ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Tashqi ishlar vazirligi, tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat organlari, "aql markazlari" va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan ilmiy izlanishlar, axborot-tahliliy va dasturiy hujjatlarni tayyorlashda, oliy ta'lim muassasalari uchun ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borishda muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xalqaro aloqalarining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasining yangi tashqi siyosiy strategiyasi va xalqaro hamkorlik aloqalarining jug'rofiy kengayish tendensiyalari, xalqaro va mintaqaviy darajadagi noan'anaviy chaqiriqlarning milliy manfaatga ta'sirini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Xalqaro masalalar bo'yicha Ekspertlar kengashini ta'sis etish zarurligiga oid taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yilgi dasturini ishlab chiqish jarayonida foydalanildi (*Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar,*

*xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasining 2025-yil 31-yanvardagi 1-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatining 2025-yilgi dasturini ishlab chiqildi, ushbu dasturga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qoshida Xalqaro masalalar bo‘yicha Ekspertlar kengashi ta’ sis etildi;

O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda, parlament faoliyatiga oid axborotlarni jamoatchilikka, jumladan, jahon afkorommasiga tezkor yetkazish, parlament faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish tizimiga asoslangan “Raqamli parlament” konsepsiyasini qabul qilish lozimligiga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatida foydalanildi (*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2024-yil 21-oktyabrdagi 02/4-95-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada, 2023-yil 24-iyuldagi 3373–IV-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini raqamlashtirishga doir ishlarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2023-yil 26- dekabrdagi 3861–IV-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini raqamlashtirish borasidagi ishlarni samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarorlari hamda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan;

Markaziy Osiyo parlamentlari forumi negizida O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo Parlamentlararo Assambleyasini ta’ sis etishga oid taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi faoliyatida foydalanilgan (*Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasining 2024-yil 4-oktyabrdagi 04/6-10-2462 – sonli ma’lumotnomasi*). Natijada 2024-yilning 23-avgust kuni 4772–IV/KQ-805–IV-sonli “Xiva shahrida Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumini o‘tkazish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati kengashlari qarorining 4-ilovasi Markaziy Osiyo davlatlarining 2-Parlamentlararo forumi konsepsiyasini, xususan, “Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida parlamentlararo hamkorlikning yangi shakllari va yo‘nalishlarini ishlab chiqish” va Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumining “Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida har tomonlama strategik hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash tarafdorimiz” deb nomlangan Deklaratsiyasi ishlab chiqilgan;

Xalqaro maydonda xalq va davlat manfaatlarini ilgari surish, parlamentlararo institutlar faoliyatiga yoshlarni keng jalb qilish, parlament diplomatiyasini amalga oshirish va bu jarayonlarda parlamentarizm milliy kadrlar maktabini takomillashtirishga qaratilgan davlatning ustuvor maqsadlarini amalga oshiruvchi Parlamentlararo Ittifoqning Butunjahon yoshlar qo‘mitasini tashkil etish zarurligiga oid taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentida foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasining 2024-yil*

21-oktyabrdagi 02/4-96 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2024-yilning 23-avgust kuni 4772–IV/KQ-805–IV-sonli “Xiva shahrida Markaziy Osiyo davlatlarining 2-Parlamentlararo forumini o'tkazish” to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari kengashlari qarorining 4-ilovasi Markaziy Osiyo davlatlarining 2-Parlamentlararo forumi konsepsiyasi “Mintaqa darajasidagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda yoshlarning ishtiroki” mavzusidagi 4-panel sessiyasi ma'lumotlari va forum Deklaratsiyasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tashqi siyosat masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish bo'yicha mutlaq vakolatlarini yanada kengaytirish zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanildi (*Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 31-yanvardagi 1-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonunning 9-moddaga (O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-fevraldagi O'RQ-909-sonli Qonuni tahririda) yangi qo'shimchalar kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Parlament xalqaro aloqalarini o'rganishning nazariy-konseptual asoslari”** deb nomlanib, unda davlatning tashqi siyosatini amalga oshirishda parlamentning ishtiroki: nazariy konseptual diskursi, parlamentlararo munosabatlarning zamonaviy siyosatshunoslik kategoriyasi sifatidagi ilmiy-amaliy ahamiyati, parlamentning xalqaro aloqalarini

mustahkamlash va rivojlantirishning institutsional mexanizmlari tushunchasiga siyosatshunoslik fani nuqtai nazaridan aniqlik kiritiladi.

Ma'lumki, davlatlar tashqi siyosatida parlamentning vakolatlari xalq diplomatiyasining o'rni ortib borishi va demokratik rivojlanishlar hamda islohotlar bilan birgalikda yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Metodologik jihatdan parlament xalqaro aloqalarini o'rganishda ushbu ko'p tomonlama sohaning murakkabligini aks ettiruvchi nazariya va yondashuvlarga boy ekanligini ta'kidlash lozim. Bu uning siyosatshunoslik, milliy va xalqaro huquq, diplomatiya, iqtisod sohasi va boshqa yo'nalishlarda o'rganilishini anglatadi. Chunki parlament davlat va jamiyatning barcha yo'nalishlarini qamrab oladi va ularning xalqarolashuvi yanada murakkab va shu bilan birga, muhim ahamiyat kasb etadi<sup>6</sup>.

Tadqiqotda davlatlar tashqi siyosatida parlamentning, ya'ni xalq vakillarining ilk ishtiroki borasidagi tarixiy rivojlanish tendensiyalari ochib berilgan. Birinchi davr miloddan avvalgi birinchi yuz yilliklarni o'z ichiga olib, Qadimgi Yunoniston shaharlari, Rim, Islandiya va boshqa davlatlarda paydo bo'lgan. Masalan, Qadimgi Yunonistonda "Amfiktiyonik kengashlar", Rim imperiyasi davrida "Fetiallar majlisi yoki hay'ati" yoki Rimda respublika davrida tashqi siyosatda Senatning o'rni va roli, Islandiyadagi "Alting" va boshqalarni keltirib o'tishimiz mumkin<sup>7</sup>. Parlament rivojlanishining ikkinchi bosqichi, uning davlat forumi sifatida maydonga kelish davriga taalluqlidir. Parlamentning vatani Angliya hisoblanadi. XII-XIII asrlardagi Angliya Parlamenti birinchi bo'lib bunday rolni qo'lga kiritib, hatto mumtoz namuna sifatida tan olingan<sup>8</sup>. Parlament taraqqiyotining uchinchi bosqichi XVII asr oxiridan boshlab, XIX asr oxirlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda parlamentarizm g'oyalari to'liq shakllanib bo'ldi. Yevropa faylasuflari J.Lokk, J.J.Russo, Sh.Monteskye, Volterning asarlari bilan xalq hokimiyatining shakllanishi va xalq vakillarining tashqi siyosatda vakolatlarining paydo bo'lishi yoki bu haqidagi nazariy qarashlarning rivojlanishini ko'rishimiz mumkin<sup>9</sup>.

Parlamentning rivojlanishidagi to'rtinchi bosqich XIX asrni o'z ichiga oladi. Bu davrda parlament davlat organi sifatida batamom shakllanib bo'ldi. Saylov qonunlari parlament a'zolarini muntazam saylash asosini yaratadi. Parlament amalda yagona qonunchilik manbaiga aylanib, qonunni qabul qilish huquqi faqat unga berildi. O'sha vaqtda parlament institutlari qonun yaratish jarayoni, deputatlar maqomi, ijro organlari, partiyalar, matbuot bilan munosabatlar shakllana boshlaydi. Parlament rivojlanishining beshinchi bosqichi XX asrga to'g'ri keldi va parlament ahamiyatining o'sishi bilan xarakterlanadi. Agar asrning birinchi yarmida parlamentlar davlat tizimida o'zini isbotlashi kerak bo'lgan bo'lsa,

<sup>6</sup> Коновалова Л.Г. Современный парламент как основа становления парламентаризма // Известия Алтайского государственного университета. 2016. - С. 107-112.

<sup>7</sup> Nicholson H. Diplomacy. London-New York: Oxford University Press, 1950, p.41.

<sup>8</sup> Щербин А. Зарождение и развитие парламентаризма. [https://duma.tomsk.ru/content/1\\_zarozhdenie\\_i\\_razvitiye\\_parlamentarizma](https://duma.tomsk.ru/content/1_zarozhdenie_i_razvitiye_parlamentarizma)

<sup>9</sup> История политических и правовых учений. Учебник / Под ред. доктора юридических наук, профессора О. Э. Лейста. – М.: Издательство "Зерцало", 2000. – 322 с.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda parlamentning ustuvorlik g'oyasi ommaviy tarzda tan olindi<sup>10</sup>. Masalan, parlamentning urush vakolatlariga ega bo'lishi<sup>11</sup>, tashqi siyosatda parlament bilan maslahatlashuvlar hamda boshqa vakolatlarining parlamentga berilishini ta'kidlash lozim<sup>12</sup>.

Parlament vakolatlarining kengayishi bilan parlamentlararo munosabatlar va hamkorlikning paydo bo'lishi va rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1889-yilda tashkil etilgan Parlamentlararo ittifoq fikrimizning yaqqol dalili bo'lib, u turli mamlakatlar parlamentariylari o'rtasida muloqot maydoni bo'lib xizmat qiladi<sup>13</sup>. Aleksandr Vendt "Social Theory of International Politics" asarida parlamentlararo aloqalarni qonun chiqaruvchilar o'rtasida umumiy o'ziga xosliklarni shakllantirish, hamkorlik va o'zaro tushunishni rivojlantirish yo'li sifatida ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi<sup>14</sup>. Bularning natijasi sifatida: "parlament diplomatiyasi", "parlamentlararo munosabatlar", "parlamentlararo hamkorlik", "parlamentlararo institutlar", "parlamentlararo ittifoq" kabi tushunchalar shakllanganligini e'tirof etish kerak.

Tadqiqotchi F.Jessap xalqaro huquq fanlari doirasida ushbu institutning rivojlanishini davom ettirib, parlament diplomatiyasining muhim roli haqida bahs yuritadi<sup>15</sup>.

"Parlament diplomatiyasi" va "parlamentlararo ittifoq" tushunchalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi parlamentlararo institutsional mexanizmlarni yaratishni o'rtaga chiqardi. Institutsional mexanizmlar parlament va uning xalqaro aloqalarini rivojlantirishdagi faoliyatini ta'minlash uchun ishlatilgan huquqiy, tashkiliy va amaliy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Ular xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, parlament diplomatiyasini rivojlantirish va parlamentning xalqaro maydondagi ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda Oliy Majlis xalqaro aloqalarining tutgan o'rni**" deb nomlanib, mazkur bobda Oliy Majlis xalqaro aloqalarining huquqiy–konseptual asoslari, Oliy Majlis xalqaro aloqalarining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari, siyosiy tizimlar barqarorligini ta'minlashda parlament diplomatiyasi rolining o'sib borishi o'rganildi va tahlil qilindi.

Xalqaro siyosiy muhitning o'zgarib borishi bilan institutsional jihatdan tobora yangilanib borayotgan parlamentlarning<sup>16</sup> tashqi siyosat va xalqaro munosabatlardagi o'rni va roli ortib bormoqda. Yevropa Kengashi Parlament

---

<sup>10</sup> Robert A. Dahl. "Democracy and Its Critics", Yale University Press; Reissue edition, 1991; Bruce Russett. "Grasping the Democratic Peace", Princeton University Press; Revised edition, 1993.

<sup>11</sup> John Hart Ely. "War and Responsibility", Princeton University Press; First Edition, 1995.

<sup>12</sup> Michael J. Glennon. "Constitutional Diplomacy", Princeton University Press, 1999.

<sup>13</sup> Lange Chr. L. The Interparliamentary Union. Advocate of Peace through Justice, 94(1), 1932, pp:26–37.

<sup>14</sup> Alexander Wendt, "Social Theory of International Politics" Cambridge Studies in International Relations, Series Number 67, Cambridge University Press, 1999, p.447.

<sup>15</sup> Варлен М.В. О возрастающей роли парламентской дипломатии в многополярном мире // Lex Russica, №7 (152), 2019.

<sup>16</sup> Longley D. Lawrence, Davidson H. Roger. Parliamentary committees: Changing perspectives on changing institutions. // The Journal of Legislative Studies. Vol.4, Iss.1, 1998. – pp.2-3.

Assambleyasining sobiq prezidenti Luis Mariya de Puig ta'kidlaganidek, davlat ichki siyosatining tobora xalqaro ahamiyat kasb etib borishi parlamentlar va parlamentariylarning xalqaro siyosatdagi ahamiyatining yuksalishiga olib keldi<sup>17</sup>.

Bugungi kunda xalqaro parlamentlararo hamkorlik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining muhim faoliyat yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ta'kidlash joizki, milliy parlamentning xalqaro munosabatlari dunyo bo'ylab parlamentlararo hamkorlikning jadal rivojlanish tendensiyalariga hamohang ravishda o'sib bormoqda. Zamonaviy parlamentlararo hamkorlikning eng keng tarqalgan mexanizmlaridan biri sifatida parlamentlararo tashqi masalalar bilan shug'ullanuvchi qo'mitalar tomonidan tuziladigan o'zaro do'stlik guruhlari va parlamentlararo uyushmalar faoliyatini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Oliy Majlisning siyosiy-huquqiy asoslari, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlardagi vakolatlari 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinishi bilan boshlangan bo'lsa, Oliy Kengashning Oliy Majlisga aylanishi (1995-yil), Ikkinchi chaqiriq (2000-2004-yillar) Oliy Majlisga saylovlardan keyin parlament tarkibida siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari 13 ta qo'mita shu jumladan, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi tashkil topgani muhim voqea bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, Oliy Majlis xalqaro aloqalarining huquqiy-konseptual asoslarini O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonuni<sup>18</sup> tashkil etadi.

Oliy Majlis xalqaro aloqalarining rivojlanish bosqichlariga oid manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, **birinchi davr** (1991-1994-yy.) parlament faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarning shakllanishi, **ikkinchi davr** (1995-2000 yy.) xalqaro aloqalarning tashkiliy-huquqiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishi, **uchinchi davr** (2002-yil yanvarda bo'lib o'tgan referendum natijalariga ko'ra) - Oliy Majlisning ikki palatadan, ya'ni, Qonunchilik palatasi (quyi) hamda Senat (yuqori) dan iborat etib tashkil qilinishi bilan O'zbekistonda parlamentarizmning xalqaro aloqalarni rivojlantirishiga katta hissa qo'shildi. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" parlamentning xalqaro aloqalarini dunyo tajribalari asosida yanada takomillashtirilishiga olib kelganligi bilan **to'rtinchi davr** yuz berdi. Va nihoyat - **beshinchi davr** 2017-yildan mamlakatimizda boshlangan tub siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar bilan bog'liq bo'lib, mamlakatimizning dunyo hamjamiyati bilan yaqin va faol aloqalarning rivojlanishi parlament faoliyatini ham tashqi siyosat va xalqaro munosabatlardagi o'rni va rolini rivojlantirdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining xalqaro aloqalari rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda olib borildi deb aytish mumkin:

– boshqa davlatlar parlamentlari bilan parlamentlararo hamkorlikni

<sup>17</sup> Қарағ: De Puig L. Maria. International Parliaments. Strasbourg, Council of Europe Publishing, 2008.

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonuni.// <https://lex.uz/acts/39573>

rivojlantirish;

– xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faol ishtirok etishi;

– xorijiy mamlakatlarning qonun ijodkorligi jarayonini o‘rganish bo‘yicha parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish;

– boshqa davlatlar parlamentlarining ilmiy-ekspert va axborot-tahlil xizmatlari bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish;

– mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish;

– xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasining tashabbuslarini ilgari surish;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash;

– xorijda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash;

– xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashga ko‘maklashish.

Prezident Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 24 yillik bayrami munosabati bilan so‘zlagan nutqida parlamentning tashqi siyosat va xalqaro munosabatlardagi vakolatlari haqida to‘xtalar ekan, Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo‘mitasining faoliyat sohasi hamda vakolatlarini kengaytirish zarurligini ilgari suradi. Bu qo‘mita xalqaro iqtisodiy hamkorlik, chet el investitsiyalarini faol jalb etish masalalari bo‘yicha parlament nazoratining muhim bo‘g‘iniga aylanishi lozim<sup>19</sup>, deb ta‘kidlagan edi.

Dissertatsiyaning **“Oliy Majlisning xalqaro aloqalarini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy mamlakatlar parlamentlari xalqaro aloqalarining rivojlanish tajribasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning xorijiy mamlakatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo institutlar bilan o‘zaro hamkorligi, O‘zbekistonda parlamentlararo aloqalarning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ochib berilgan va keng tahliliy yoritilgan.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab davlatlarda masalan, AQSh, Angliya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, J.Koreya va boshqa rivojlangan davlatlarda parlament hukumat oldiga masala qo‘yish, turli masalalarda munozaralar o‘tkazish, hukumat hamda vazirlarning o‘z faoliyati yuzasidan parlament, palatalar yalpi majlislarida ma‘ruzasi va hisobotini tinglash, mansabdor shaxslarga ishonchsizlik votumi bildirish (masalan, ishonchsizlik votumi bitta vazirga nisbatan bildirilgan taqdirda ham butun hukumat iste‘foga ketishi lozim bo‘ladi. Bunday kollektiv javobgarlik Daniya, Yaponiya, Italiya, Vengriya, Misr, Malayziya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa ko‘plab Yevropa davlatlarida mavjud), impichment, interpellyatsiya, parlament tekshiruvi (tergovi),

---

<sup>19</sup> Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi.//Jamiyat va boshqaruv. 4-son, 2016. – B. 5-16.

parlamentning maxsus majlislari, hukumatga tanbeh e’lon qilish, parlamentning doimiy qo‘mitalariga tegishli vazirliklarning vazirlik faoliyatining bir yilligi bo‘yicha hisobotlarni taqdim etishi, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va boshqa ko‘plab vakolatlariga ega hisoblanishadi.

